



МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ

Илимий-методикалық журнал

№ 5 2025

*гуманитарные науки
естественные науки
технические науки*





МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ



Илимий-методикалық журнал

2025

5-сан

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз хәм хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы гүўалық берилген.*

Нөкис

5-сан 2025
сентябрь-октябрь

*Қарақалпақстан Республикасы мектепке шекемги хәм мектеп билимлендириуи
министрлиги, Қары Ниязий атындағы Тәрбия педагогикасы миллий институты
Қарақалпақстан филиалы*

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ	Асқарбай НИЯЗОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ	Сабит НУРЖАНОВ
Айтмурат АЛЬНИЯЗОВ	Захия НАРИМБЕТОВА
Сапардурды АБАЕВ	Хушбок НОРБҰТАЕВ
Адхамжон АБДУРАШИТОВ	Ойниса МУСУРМОНОВА
Хайрулла АЛЯМИНОВ	Уролбой МИРСАНОВ
Мавлюда АЧИЛОВА	Сафо МАТЧОН
Азизжан АБДАЗИМОВ	Шуқурилло МАРДОНОВ
Шухрат АБДУЛЛАЕВ	Абдулхамид МИРЗАЕВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ	Шахло МИРЗАЕВА
Злийха ОРАЗЫМБЕТОВА	Дармонжон МАХМУДОВА
Мансурбек ОНГАРОВ	Абдимурат ЕСЕМУРАТОВ
Алишер АЛЛИМУРАТОВ	Даулетназар СЕЙИТКАСЫМОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ	Қалыбай ПРИМБЕТОВ
Тўлқин АЛЛАЁРОВ	Раъно ОРИПОВА
Марифжон АХМЕДОВ	Бахтиёр РАХИМОВ
Гулзабира БАБАШЕВА	Норим РАХМАНОВ
Ўмида БАХАДИРОВА	Муқаддас РАХМАНОВА
Фархад БАБАШЕВ	Светлана СМИРНОВА (Москва, Россия)
Гулзода БОЙМУРОДОВА	Тажибай САПАРБАЕВ
Гулбахар БЕКИМБЕТОВА	Мухаббат САЛАЕВА
Комил ГУЛЯМОВ	Гўзал СОДИҚОВА
Маманазар ДЖУМАЕВ	Улбосын СЕЙТЖАНОВА
Асқар ДЖУМАШЕВ	Айдын СУЛТАНОВА
Дилдора ДАВРОНОВА	Амина ТЕМИРБЕКОВА
Мухтар ЕРМЕКБАЕВ (Шимкент, Қазақстан)	Нурзода ТОШЕВА
Масуда ЗАЙНИТДИНОВА	Қуанишбек ТУРЕКЕЕВ
Алишер ЖУМАНОВ	Тажибай УТЕБАЕВ
Гулнара ЖУМАШЕВА	Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ
Айсұлу ЖАНАБЕРГЕНОВА	Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ
Холбой ИБРАГИМОВ	Амангелди ҚАМАЛОВ
Шохида ИСТАМОВА	Тажикал КУДАЙБЕРГЕНОВА
ВОХИД КАРАЕВ	Дилором ШАМСИЕВА
Алима КЕНЖЕБАЕВА (Тараз, Қазақстан)	Ойбахор ШАМИЕВА
Сарсенбай КАЗАХБАЕВ	Ризамат ШОДИЕВ
Мохира КУВВАТОВА	Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Комилжон ҚАРИМОВ	Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Джавдод ПҰЛАТОВ	Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Ярмухаммат МАДАЛИЕВ (Шимкент, Қазақстан)	Тармиза ХУРВАЛИЕВА
Меруерт ПАЗЫЛОВА	Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Барлықбай ПРЕНОВ	Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ
Пердебай НАЖИМОВ	Гулрухсор ЭРГАШЕВА
Искендер НАЖИМОВ	Гавхар ЭШЧАНОВА
	Қонысбай ЮСУПОВ
	Гулара ЮСУПОВА

Jumasheva G.X., Bisenova D.A. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar bilan pedagogik diagnostik faoliyatni tashkil etish vositalarining nazariy asoslari	286
Jumasheva G.X., Kamalova S.A. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslari	291

ТАСВИРИЙ САЪНАТ

Уразимова Т.В. Эмелий-безеў өнер түрлери талабалардың көркем дөретиўшилик кәбилетлериниң тийкары сыпатында	296
---	-----

СОЦИАЛЛЫҚ ПЕДАГОГИКА

Saparbayeva G.A. Pedagog- tarbiyashiniñ kásiplik kompetentligin rawajlandiriwda metodikalıq xızmettiñ roli	303
Berdimurodova M.A. Umumta'lim maktablarining boshqaruv faoliyatida marketing xızmatlarini tashkil etish	308
Ximmataliyev D.O., Eshbekova G. X. Xorijiy tillarni o'rgatishdagi ilk tarixiy metodning yaralishi va amaliy tavsiyalar	317
Ximmataliev D.O., Omonova N.P. Uzluksiz inkluziv ta'limni tashkil etishning ilmiy-nazariy asoslari	325
Bekmuratov A.K. Akmeologik va kompetensiyaga asoslangan yondashuvlarni integratsiyalash orqali bo'lajak o'qituvchilarda prognozlash ko'nikmalarini rivojlantirish	334
Gayupova S.X. Pedagogik ta'limni modernizatsiyalashda innovatsion klaster modelining nazariy, amaliy va strategik ahamiyati	341
Rasulov A.N. Oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalash jarayonida talabalarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishning zarurligi va imkoniyatlari	350
Kaxramonova Sh.X. O'qituvchi kasbi nufuzini oshirish va uni rag'batlantirishning imkoniyatlari	354
Tursunaliyeva G. O'quvchilarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish bosqichlari	360
To'liqinova F.A. Maktabgacha ta'lim tizimining ilmiy va amaliy metodologik asoslari	365
Primqulova A.M. Yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish: O'zbekiston uchun yangi imkoniyatlar	369
Kuralova A.G. Tashqi mehnat migratsiyasining iqtisodiy o'sishga ta'siri va ichki mehnat bozori bilan o'zaro bog'liqligi	374
Xujakulov A. K. Texnik yo'nalishlarning bo'lajak bakalavrlarida gipotetik tafakkurni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari	379
Sultanov X.E. Pedagogika oliy ta'lim muasasalarida badiiy ta'limni klaster usulida integratsiyalash imkoniyatlari	388
Umarova Sh.B. Sharq mutafakkirlarining axloqiy qarashlarini ta'lim jarayonida qo'llash imkoniyatlari	395
Rajabova M. Alohida ehtiyojli bolalarning nutqini rivojlantirishda fonetik ritmika texnologiyasining tamoyil va usullarining o'ziga xoligi	400
Safiyeva M.A. Inkluziv ta'limda pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish: muammolar va innovatsion yondashuvlar	407
Qodirova F.U. Inkluziv ta'lim jarayonida axloqiy qadriyatlar va tolerantlikni shakllantirishning pedagogik asoslari	413
Raimdjanova G.B. O'zbekistonda psixologlari tadqiqotlarida to'liq va noto'liq oila fenomenining o'rganilishi	418
Abduvohobova A.O., Raimdjanov M.T. Psixoanalitik tadqiqotlar doirasida onalik hodisasining o'rganilishi	425
Qodirov I. Talabalarning g'oyaviy-mafkuraviy kompetentligini rivojlantirish tuzilmasi va komponentlari	431



TALABALARNING G‘OYAVIY-MAFKURAVIY KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISH TUZILMASI VA KOMPONENTLARI

Qodirov I.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Pedagogika kafedrasi v. b. dotsenti*

Tayanch so‘zlar: faol fuqarolik pozitsiyasi, tuzilma, komponent, mafkuraviy profilaktika, mafkuraviy pedagogika, hamkorlik pedagogikasi.

Ключевые слова: активная гражданственность, структура, компонент, идеологическая профилактика, идеологическая педагогика, кооперативная педагогика.

Key words: active citizenship, structure, component, ideological prevention, ideological pedagogy, collaborative pedagogy.

РЕЗЮМЕ:

Mazkur maqolada pedagogika oliy ta'lim muassasi talabalarida g'oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirish tuzilmasi va komponentlari yoritib berilgan.

РЕЗЮМЕ:

V статье рассмотрены структура и компоненты формирования мировоззренческой компетентности студентов высших педагогических вузов.

SUMMARY:

This article describes the structure and components of the development of ideological competence in students of pedagogical higher education institutions.

Kirish. Bugungi kunda zamonaviy ta'limning vazifasi kasbiy, huquqiy, milliy, ma'naviy-ma'rifiy, mafkuraviy va madaniy jihatdan talabalarning kompetentligini shakllantirish masalasi bilan bog'liqdir. Xalqaro ta'lim andozalariga moslikning ta'minlanishi ta'lim mazmuniga g'oyaviy-mafkuraviy, ma'naviy-ma'rifiy jihatlar ham kiritilishini talab qiladi. Chunki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning bundan keyingi bosqichlari jamiyatga global miqyosda fikrlay oladigan, turli xil siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy vaziyatlarda o'z yo'nalishini topa oladigan, taraqqiyparvar g'oyalar va mafkura bilan qurollangan etuk shaxslar etkazib berilishini taqozo etadi. Bunday shaxslarning tayyorlanishida esa oliy ta'lim sohasi etakchi va hal qiluvchi o'rinni egallaydi[1].



Shaxsning g'oyaviy-mafkuraviy kompetentligi – bu jamlanma tavsif bo'lib, u shaxsning atrofdegilar bilan g'oyaviy va mafkuraviy masalalarda muloqotni ongli va to'g'ri tashkil eta olish, turli xil g'oyaviy va mafkuraviy axborotlardan maqsadga muvofiq ravishda foydalana bilish ko'nikmalarini egallaganlik orqali namoyon bo'ladi.

Talabalarining g'oyaviy-mafkuraviy kompetentligini shakllantirish shart-sharoitlari o'zida ko'rib chiqilayotgan ob'ektning tashqi xususiyatlarini o'z ichiga oluvchi va ta'lim sub'ektining ichki dunyosi bilan o'zaro aloqadorliklariga yo'naltirilgan majmuaviy masalalardan iboratdir.

Talabalarining g'oyaviy-mafkuraviy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlarini ishlab chiqish quyidagi jihatlarni hisobga olishni taqozo etadi:

- jamiyatning kasbiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy - ma'rifiy, g'oyaviy va mafkuraviy masalalarni professional tarzda hal qila bilish qobiliyatiga ega bo'lgan ishchi-xodimlarga bo'lgan ehtiyoji;

- bo'lajak mutaxassislar sifatida talabalarni g'oyaviy-mafkuraviy tarbiyalashning o'ziga xosliklari;

- shaxsning g'oyaviy-mafkuraviy kompetentligini shakllantirish jarayonida olib boriladigan turli faoliyat yo'nalishlarining o'ziga xos xususiyatlari.

Aytib o'tilganlarni umumlashtirgan holda ta'kidlab o'tish lozimki, talabalarining kasbiy tayyorgarligi davomida g'oyaviy-mafkuraviy tayyorganlikning mazkur majmuasidan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi. Chunki, aynan ijtimoiy-kommunikativ kompetentlikning muhim komponenti sifatida g'oyaviy-mafkuraviy kompetentlik har bir talabaning individual o'ziga xosliklarini, bilishga qiziqishi va tajribalarini e'tiborga olib, bu ularni kasbiy o'sishga ruhlantiradi, o'z bilim va ko'nikmalaridan konkret vaziyatlarda o'z o'rnida foydalanishga hamda o'z faoliyatini mustaqil tahlil qila bilishga yo'naltiradi.

Xozirga kunda shu narsa ravshanki, jahon miqyosida globallashuv jarayonlarining chuqurlashib borishi har bir davlat, millat va etnik guruh vakillariga, jumladan, yoshlar ongiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Bunda axborot oqimlarining tezlashuvi, ularni olish manbalarining turli-tumanligi har xil turdagi g'oyalar, mafkuraviy va madaniy oqimlarning keng tarqalishiga sharoit yaratib bermoqda. Buning ustiga, yuqori malakali ishchi kuchini takror hosil qilishning eng asosiy va istiqbolli segmenti bo'lgan oliy o'quv yurtlari talabalarining turli xil axborot manbalaridan foydalanish imkoniyatlariga egaligi ularni bunday oqimlarning salbiy ta'sirlaridan himoya qilish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Adabiyotlar tahlili. O‘z o‘rnida kasbiy kompetentlik negizida quyidagi kompetensiyalar aks etadi:

1. Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub'ektlar bilan muloqotga kirisha olish.


2. Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholashni izchil rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informasion, kreativ, innovasion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi.

Shu boisdan ham keyingi yillarda kasbiy pedagogik kompetentlik pedagogik mahoratning yangi kategoriyasi va eng asosiysi sifatida tan olinmoqda. Ushbu kategoriyaning o‘ziga hos jihatlari ayniqsa pedagogika fanlari doktori, professor N.Muslimovning fikricha, kompetentlik - talaba tomonidan alohida bilim va malakalarning egallanishi emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va amaliy harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi[8]. Talaba tomonidan olingan nazariy bilimlarni faoliyati davomida mustaqil tarzda amaliyotda qo‘llay bilish darajasi.

Buyuk Britaniyalik etakchi pedagog olimlarning asarlarida kasbiy kompetentlik tushunchasi mohiyatini tushuntiruvchi quyidagi asoslarni uchratish mumkin:

- kasbga oid yuqori malaka va maxsus qobiliyat;
- yuqori jismoniy yoki intellektual fazilatlar;
- malakali bo‘lish qobiliyati;
- berilgan topshiriqlarni nazariy va amaliy jihatdan yaxshi bajarish qobiliyati;
- bilim, ko‘nikma, xulq-atvorni qamrab olgan biror vazifani bajara olish qobiliyati va hokazo[4].

Tadqiqot metodologiyasi. Talabalarda g‘oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirishning to‘rtta ustuni – faol fuqarolik pozisiyasi, mafkuraviy profilaktika, mafkuraviy pedagogika, hamkorlik pedagogikasiga asoslangan holda, uning emosionol-motivasion, informasion-kognitiv, faoliyatga doir, aksiologik komponentlari aniqlashtirildi (1-rasmga qarang) Dastlab talabalarda g‘oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirishning to‘rt ustuniga to‘xtalib o‘tamiz. **1. Faol fuqarolik pozisiyasi** tushunchasiga to‘htalib o‘tishdan oldin fuqarolik tushunchasi, pozisiya va fuqarolik pozisiyasi tushunchalariga to‘htalib o‘tishimiz kerak bo‘ladi. *Fuqarolik* - fuqaro ekanlik; fuqarolarga oidlik; fuqaroning huquqiy holati degan ma'nolarni beradi[2]. *Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib fuqarolik tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin*, ma'lum



1-rasm. Talabalarda g'oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirish tuzilmasi

bir davlatning fuqarosi ekanligini, fuqarolik huquqlariga oid munosabatlarda bevosita yoki bilvosita ishtirok etishi, fuqarolik bu shaxsga berilgan huquq va majburiyatdir.

Faol fuqarolik pozitsiyasi nima degan savolga javob beradigan bo'lsak, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "faol" (arabcha "harakat qiluvchi, ta'sirchan") so'ziga quyidagicha ta'rif berilgan: 1) biror g'oyaviy harakat yoki ishga g'ayrat bilan, astoydil kirishadigan, ishchan; 2) biror jamoaning ijtimoiy hayoti, faoliyatida astoydil, berilib ishlaydigan, jamoatchi; 3) harakatchan, ko'p harakat qiladigan[2]. Faol fuqarolik pozitsiyasi milliy g'oyamizning ezgu g'oyalari ijrosi yo'lida birgalikda faol ishtirok etish, jamiyatda va jamoada, jamoatchilik joylarida ijtimoiy munosabatlarga asoslangan faoliyatda harakatchan va faol ishtirokchi bo'lish.

2. Mafkuraviy profilaktika - mafkuraviy profilaktika ijtimoiy institutlar tomonidan amalga oshiriladigan turli shakllardagi g'oyaviy - tarbiyaviy, ma'naviy - mafkuraviy ishlar majmui bo'lib, u butun g'oyaviy tarbiya tizimini qamrab oladi. Mafkuraviy profilaktika g'oyaviy bo'shliqni tugatish, mafkuraviy parokandalikni oldini olish yoki biror-bir hudud, qatlam, guruhni yot va zararli g'oyalar ta'siridan xalos qilish maqsadida amalga oshiriladi[14].

2. Mafkuraviy profilaktika - mafkuraviy profilaktika ijtimoiy institutlar tomonidan amalga oshiriladigan turli shakllardagi g'oyaviy - tarbiyaviy, ma'naviy - mafkuraviy ishlar majmui bo'lib, u butun g'oyaviy tarbiya tizimini qamrab oladi. Mafkuraviy profilaktika g'oyaviy bo'shliqni tugatish, mafkuraviy

parokandalikni oldini olish yoki biror-bir hudud, qatlam, guruhni yot va zararli g'oyalar ta'siridan xalos qilish maqsadida amalga oshiriladi[14].

Falsafa fanlari doktori, professor A.Ochilidievning fikriga ko'ra "Mafkuraviy himoya ta'lim-tarbiya va targ'ibot tashviqot tizimi orqali amalga oshiriladi. Sog'lom mafkurani xalq ongi va qalbiga singidirishga xizmat qiladigan ijtimoiy tuzilmalar, oila maktab, maxalla, davlat va jamoat tashkilotlari ham bu jarayonda o'z o'rniga ega" [10].

3. Mafkuraviy pedagogika tushunchasiga to'xtalib o'tishdan oldin mafkura va pedagogika tushunchalariga to'xtalib o'tish kerak. Mafkura tushunchasiga falsafiy adabiyotlar va lug'atda berilgan ta'riflar shakl va mazmun jihatdan xar xil. "Mafkura – jamiyatdagi ijtimoiy guruhlar, millatlar va elatlar, siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, jamoat tashkilotlari, davlat hokimiyatining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, axloqiy, diniy, estetik, falsafiy, qarashlarining tizimlashtirilgan bilimlar yig'indisini tashkil topadi" [12].

M.Inomovanning ta'kidlab aytganidek, "milliy axloq, milliy tarbiya natijasida tarkib topadi. Milliy tarbiya negizida oilaviy tarbiya yotadi" [6] deya ta'kidladi.

Bu jihatdan qaraganda, "oila mafkuraviy tarbiyaning muhim ijtimoiy omillaridan biridir. Chunki, oila jamiyat negizi bo'lib, ko'p asrlik mustahkam ma'naviy tayanchlarga ega. Milliy mafkuramizga xos bo'lgan ilk tushunchalar, avvalo, farzandlar ongiga oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshadi. Oiladiga sog'lom muhit – sog'lom mafkurani shakllantirish manbaidir" [3].

4. Hamkorlik pedagogikasi – hamkorlik pedagogikasi deganda avvalo hamkorlik, oila, mahalla, ta'lim muassasalari tomonidan hamkorlikda olib borilayotgan faoliyat to'xtalib o'tish kerak bo'ladi. "Hamkorlik" tushunchasi zamonaviy insonparvarlikka yo'naltirilgan pedagogikaning etakchi tushunchasini o'zida ifoda etadi. Hamkorlik-eng umumiy ma'noda kishilarning mehnatdagi o'zaro harakati, ya'ni ularning birgalikdagi faoliyatidir.

M.Mid hamkorlikda umumiy maqsadga erishish yuzaga keladi, raqobat jarayonida boshqalar xuddi shu vaqtda erishishga intilayotgan natijani izlash va qo'lga qiritiladi, deb hisoblaydi[15]. Hamkorlikda faoliyat olib borish umumiy maqsadga erishish yuzaga keladi, faoliyat davomida raqobat muhiti shakllanadi, qisqa vaqt ichida oldinga qo'yilgan maqsadga erishiladi.

Tahlil va natijalar. Talabalarda g'oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirishning emosionol-motivasion, informasion-kognitiv, faoliyatga doir, aksiologik komponentlariga to'xtalib o'tamiz.

1. Emosionol-motivasion. Motivasion soha milliy umumiylikning sabablari va g'oyalarinnng o'ziga xosligini tavsiflaydi[9].



Motivasion komponent – talabalarda yangini bilishga ehtiyoj, faoliyat maqsadi va natijalarining anglanganligi, kompetentlikni namoyon etishga tayyorlik. S.V.Roslyakova Motivasion-aksiologik komponent – “motivlar, qiziqishlar, bilishga doir qadriyatlar” [11]. Qadriyatli-mazmunli komponent – kompetentlik mazmuni voqelikdagi bilish ob'ektlariga taalluqli aksiologik ustanovkalarining mavjudligi.

Psixologik-pedagogik kompetentlik deganda, M.I.Lukyanova fikricha, pedagogik faoliyatga va o'quv jarayonida ta'lim oluvchilar bilan samarali muloqatni o'rnatishga yuqori darajada tayyorgarlikka ega bo'lgan shaxsning muayyan sifatleri yig'indisi tushuniladi[7] Demak, Pedagogik –psixologik kompetentlik deganda pedagog va talabalar o'rtasida ta'limga oid bevosita muloqot asosida erishiladigan natija.

2. Informasion-kognitiv. “Kognitiv” tushunchasi “bilish”, “bilish faoliyati” bilan birga qo'llaniladi. Kognitiv kompetentlikning zaruratini asoslashdan avval, “bilish” tushunchasiga qisqacha to'xtalib o'tamiz. Bilish jarayoni-bu narsa-hodisalar haqida haqiqiy va ular haqida oddiy bilimlarni o'zlashtirish maqsadini aks ettiradigan inson intellektual faoliyati jarayoni. Shuning uchun jarayonning o'zi insondagi bilimlar va ularning tayanchidan foydalanishni o'zida aks ettiradi[13].

Psixologiya fanida bilishning ikki darajasi farqlanadi: hissiy va rasional. Birinchi darajaga sezish organlari yordamida bilish taalluqlidir. Hissiy bilish natijasida insonda atrof-muhit manzarasi, obraz hosil bo'ladi. Psixologiyada sub'ektning hissiy bilishi eng avvalo, idrok etish jarayonlarida va uning xususiy shakli – sezishda namoyon bo'ladi.

3. Aksiologik. Aksiologiya – qadriyatlar to'g'risidagi fan. Ya'ni, shaxsning aksiologik bilimi, aksiologik ongi, qadrlash tuyg'usi, qadrlash tamoyiliga tayanib to'plangan qadriyatlar to'g'risidagi bilimlar tizimidir.

Pedagogika fanlari doktori, professor B.Xodjaev aksiologik kompetensiya – voqelikni aksiologik baholay olish, tabiiy va ijtimoiy hodisalarning qadrini anglash, zavq olish, lazzatlanish, mas'uliyat hissini sezish, o'quvchining o'z ichki pozitsiyasini anglashi va aniq qadriyatlar bilan bog'liqlikda faoliyatga tayyorlik, hayotning turli qirralarini aks ettiradigan muammolar hamda ularning echimlarini ifodalaydigan qarashlar, g'oyalar, ta'limotlar, talab va ehtiyojlarning real jarayonlar uchun qadr-qimmatini aniqlash deb ta'kidlaydi.

4. Faoliyatga doir. Faoliyat nazariyasi pedagogikada shaxsiy-faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvda o'z aksini topgan. Shaxsiy-faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv yo'nalishida izlanishlar olib borgan tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, shaxsiy-faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvda shaxsning va



faoliyatning komponentlari bir-biri bilan chambarchas bogʻlangan boʻladi, chunki bu yondashuv jarayonida shaxs sub'ekt sifatida faoliyat koʻrsatadi[5].

Shaxsiy-faoliyatga yoʻnaltirilgan yondashuvda talabalarning mustaqil faoliyatiga taʼsir etuvchi taʼlim-tarbiya jarayonidagi mavjud omillarni aniqlash asosida, ularning mustaqil va erkin fikr bildirishlari, oʻz tushunchalarini ifodalashlari, erkin muloqotga kirishishlari, oʻz imkoniyatlarini namoyon etishlari uchun zaruriy va etarli shart-sharoitlar yaratishga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, talabalarda gʻoyaviy-mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari mazkur jarayonga kompleks yondashuvni talab qilib, uning tuzilmasi, komponentlarini aniqlashtirish, jarayonga taʼsir etuvchi omillarni hisobga olishni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Oʻzbekiston Respublikasining “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonuni. 23.09.2020. // [https:// lex.uz/docs/5013007](https://lex.uz/docs/5013007)
2. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. 4-jild. – T.: «Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. -369-b
3. Milliy istiqlol gʻoyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: Oʻzbekiston, 2000. – 66-b..
4. Барабанщиков А. В., Дерюгин П. П. Военно-педагогическая диагностика. М.: ВУ, 1995. 147-б.
5. Зимняя И.А. Педагогическая психология. – М.: Логос, 2000. – 384 с.
6. Inomova M.O. Oilada bolalarni maʼnaviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari (mustaqil hayot boʻsagʻasidagi yoshlar): Pedagogika fanlari doktori... dis./ Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti. – Toshkent, 1998. 279-bet.
7. Лукьянова М.И. Психолого-педагогическая компетентность учителя // Педагогика .- 2001.- №10.-С.56-61.
8. Muslimov N.A. Boʻlajak kasb taʼlimi oʻqituvchisini kasbiy shakllantirish. – Toshkent: Fan, 2004.- 130 b.
9. Nodira Egamberdieva Ijtimoiy Pedagogika Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti Toshkent - 2009 48 b
10. Ochildiev A. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar.- Toshkent: Muharrir , 2009-95b.
11. Рослякова С.В. Концепция формирования познавательной компетентности у современных подростков в условиях интеграции общего и дополнительного образования: монография. – Челябинск: Изд-во Челяб. гос. пед. ун-та, 2016. – 341 с.
12. Tulenov J,Supov K, Gʻafurov Z. Istiqlol va taraqqiyot mafkurasi: maqsad va yoʻnalishlari. Toshkent. «Oʻzbekiston», 1993, 12-bet
13. Философия: Учебник для вузов / Под. ред. Л.А.Никитич. – М.: ЮНИТИ – ДАНА, 2000. – С.37-38.
14. Falsafa qomusiy lugʻat “Oʻzbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati nashriyoti” “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshent - 2004 249-b. Tuzuvchi va masʼul muharrir: f.f.d. Qiyomiddin Nazarov
15. Mead M. Cooperation and Competition Among Primitive People / M. Mead. – McGrawHill, 1997.